

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

NAVOIY IJODIYOTIDA HAZRATI USMON VASFİ

Zulayho ABDURAHMON

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
zuleyha2008@mail.ru*

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14803738>

Annotatsiya: Irfoniy adabiyotda chahoryorlar vasfiga an'anaviy tarzda alohida o'rın ajratilgan. Ularning islomga qilgan xizmati e'tirof etilgan. Maqolada Alisher Navoiyning ham asarlari, xususan dostonlarida keltirilgan to'rt xalifa, jumladan, Usmon (r.a.) vasf etilgan o'rinalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: din, islom, xalifa, devon, doston, an'ana, vasf, zunnurayn, shahid.

Sharq mumtoz adabiyotida Allohga hamd, Muhammad (s.a.v.)ga na't kelgandan so'ng 4 xalifaga ham bag'ishlov, ta'rif-tavsif keltirilgan. Bu tariqat adabiyotida ham, devon adabiyotida ham aksar an'ana holiga kelgan. Navoiy ham mazkur islomiy adabiyot an'anasiga sodiq o'laroq qalam tebratgan va chahoryorlarga bag'ishlov, vasf, ta'rif keltirgan. Zero, islom olamida mazkur to'rt xalifa yodga olinar ekan: "ular hokim emas, xodim, ya'ni ummatga xizmatchi bo'ldilar", deyiladi. Ularning Allohga muhabbat, rasulullohga sadoqati, islomga xizmati tillarda doston bo'lgan, sharqu g'arbda birday ibrat sanalgan.

Usmon (r.a.) fil yilining oltinchi sanasida, ya'ni Rasululloh (s.a.v.) hazratlarining tug'ilishlaridan olti yil keyin Toif shahrida dunyoga keldilar. U kishi asli quraysh qabilasidan bo'lib, ham ota, ham ona tomonidan nasablari Rasululloh (s.a.v.) nasablariga birlashadi. Otalari Affon ibni Abdul Os ibni Umayya ibni Abdu Shams ibni Abdumannob, onalari Arvo Qurayz ibni Habib ibni Abdu Shams ibni Abdumannobning qizlaridurlar. Abu Bakr (r.a.) Islomni qabul qilganlaridan uch kun o'tgach, Usmon (r.a.)ga Islomni arz etadilar. O'shanda Usmon (r.a.) 34 yoshda edilar. Usmon (r.a.) Hazrati Abu Bakr (r.a.)ning takliflarini qabul qilib, dinga kirgan dastlabki 9 kishining biriga aylanadi. Shu bilan birga Rasululloh (s.a.v.)ning eng sirdosh kishilaridan biri bo'ldi va chaharyorlardan biri sifatida tarixda qoldi. "Xamsa"ning ilk dostoni "Hayrat ul-abror"ning 4-na'tida payg'ambar s.a.v.ning "as'hobi kan-nujum", ya'ni "mening as'hoblarim yulduz kabidir" so'zini keltirib, hazrati Abu Bakr Siddiq, hazrati Umar, hazrat Usmon, hazrat Ali (r.a.)lar haqida to'xtaladi. Ularning islom tarixidagi buyuk bir xizmatlarini eslatadi. Jumladan, Usmon (r.a.) haqida shunday deydi:

Buki kalomulloh angadur nasib,

Kim yo'q anga mu'jiza andin g'arib.

Sura dema, «qof» ila «nun» yoki «sod»,

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

*Ya 'niki har harfig 'a oning savod,
Sunbulidek borchha parishon edi,
Jomi' anga jomii qur'on edi.*

Hazrati Usmon (r.a.)ning islom tarixida alohida e'tirof etiladigan xizmatlaridan biri Qur'oni karimni jam etib, kitob holiga keltirganidir. Navoiy ham buni alohida e'tirof etadi. "Lison ut-tayr" dostonida esa xalifai roshidinlarga ketma-ketlikda to'xtaladi. Jumladan, "Amirul-mo'minin Usmoni zunnurayn roziollohu anhu shonida" deya maxsus bob bag'ishlaydi. Bob hazrati Usmon (r.a.)ning eng mashhur fazilatlaridan bo'lmish Hayo xususidagi tavsif bilan boshlanadi:

*Ul hayo koniki nurul-ayn edi,
O'ylakim aynayn zun-nurayn edi.
Sidq koniyu muruvvat maxzani,
Hilm bahriyu futuvvat ma'dani.*

Islom tarixida musulmonlarga yordam bergen futuvvat ahli orasida Usmon (r.a.)ning alohida o'rni bor. Ul zot badavlat savdogar odam edilar. Tabuk g'azotida musulmonlarning qo'shinini to'liq qurollantirgan. Ming dinor pul, 950 ta tuya va 50 ta ot hadya qilgan. Shuningdek, yahudiydan Rum qudug'ini ham sotib olib, Alloh yo'lida musulmonlarga hadya qilib yuborganlar. Abu Bakr Siddiq (r.a.) xalifalik qilayotgan vaqtlarida bir yil yog'ingarchilik kam bo'lib ocharchilik boshlanadi. Abu Bakr (r.a.) odamlarga: «Bor narsalarini berkitmay to Alloh kenglik bergunga qadar yeb turinglar», deb buyuradilar. Ertasiga Abu Bakr (r.a.)ga hazrati Usmon (r.a.)ning hovlilariga ming qop bug'doy va taom kelib tushganligini xabari yetadi. Ertalab savdogarlar Usmon (r.a.)ning hovlilariga borib, "o'niga o'n ikkidan beramiz", deyishadi. Usmon (r.a.) "bu kamlik qiladi", deganlarida ular "bo'lmasa, o'n beshdan beraylik" deyishdi. Usmon (r.a.) "yana qo'shinglar", deganlarida, ular "yana qancha qo'shaylik", axir biz Madina savdogarlarimiz-ku?" deyishdi. "Har tangasiga o'n tangadan bera olasizmi?" dedilar. Ular "yo'q" deb javob berishdi. "Unday bo'lsa guvoh bo'ling, ey savdo ahli, bu bug'doy Madina kambag'allariga sadaqa qilinadi" dedilar va hammasini bepul sadaqa qilib yuborganlar. Bu kabi himmatlari haqida ko'plab misollarni keltirish mumkin. Shuning uchun Usmon (r.a.)ning futuvvat ahli ekanliklariga Navoiy ham urg'u beradi.

Shu bilan birga Navoiy ul zotning "Zunnurayn" laqablariga alohida e'tibor qaratadi. Usmon (r.a.) Rasululloh (s.a.v.) qizlari Ruqiya (r.a.)ga Makkada yashagan vaqtlarida uylangandilar. Birgalikda Habash viloyatiga hijrat qilganlar. Habashda Abdulloh ismli o'g'llari tug'ilgan. Usmon (r.a.)ni mazkur o'g'llarining nomi bilan kuniyalab, Abu Abdulloh deya atardilar. Abdulloh olti yoshga yetganlarida ko'zlarini xo'roz chuqib olganligidan, yuzlari jarohatlanib vafot etganlar. Badrda musulmonlar

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

mushriklar ustidan zafar topganliklarining sevinch xabari Madinaga kelgan kuni Ruqiya (r.a.) vafot etadilar. Usmon (r.a) qattiq qayg'uradilar. Rasululloh (s.a.v.) u kishining bunday qattiq alam chekayotganlarini ko'rib: "Sizga nima bo'ldi, muncha ham qattiq qayg'urmasangiz", deganlarida Usmon (r.a.): "Biror kishiga hanuz mening boshimga tushgan kabi musibat tushganmiki, Rasululloh (s.a.v.) ning mening nikohimdag'i qizlari vafot etgan bo'lsa, endi o'rtadagi qarindoshlik rishtasi uzilgan bo'lsa", deya javob berdilar. Rasululloh (s.a.v.) hazratlari "Jabroil kelib menga Alloh taolodan sizga qizimning singlisi Ummu Gulsumni bermoqlikka farmon bo'lganligini buyurayaptilar" dedilar. Usmon (r.a.) u kishi bilan olti yil umr ko'rganlaridan keyin vafot etadilar. Shunda Rasululloh (s.a.v.) hazratlari: "Usmonni uylantiringlar, agar mening uchinchi qizim bo'lganida uni ham Usmonga bergen bo'lardim va Allohdan vahiy bo'lmasdan men bu ishni qilmaganman" [1,124],- degandilar. Zero, u kishi Rasululloh (s.a.v.)ning ikki pokdamon muborak qizlariga uylangan sababli Zinnurayn deya sharaflangandilar.

*Bu sharaf basdurki to holi ango,
Ashrafi ummat erur toli' ango.
Kimga bergay dastkim rabbi g'afur,
Kulbasig 'a solg 'ay andoq ikki nur.*

Shuningdek, Navoiy Usmon (r.a.)ning ko'ngillar zindonida saqlanayotgan Qur'oni Karimni sahifalarga ko'chirtirgani va unda ma'lum bir tartiblarga rioya qilgani xususida ham batafsil to'xtaladi:

*Tengri aylab jomii Qur'on oni,
Xalq deb Usmon bin Affon oni.
Chun Kalomullohni ruhul-amin,
Aylab irsol shafi 'ul-muznabin.
Ul zamondin to oning davronig 'a,
Yer tutib erdi hafo zindonig 'a.
Necha oyat jam ' aylab har arab,
Jam 'u tartibig 'a ul bo 'ldi sabab.
Suralar o 'rnini ta'yin ayladi,
Bulajab devonni tadvin ayladi.*

"Al hayoyu minal imon" – "Hayo iymondandir" hadisi sharifi aytilganda, avvalo, Usmon (r.a.)ning siyimosi gavdalangan. Zero, Rasululloh (s.a.v.)ning o'zлari u kishining hayo egasi ekanliklarini ko'p bora ta'kidlaganlar. Navoiyning ham Usmon (r.a.)ning hayolari haqidagi ma'lumotlarga asoslangan hadislar asosidagi hikoyati beriladi. Rasululloh oyog'larini uzatib turgan ekanlar. Bir necha as'hoblar kelsa ham hollari o'zgarmabdi. Ammo Usmon (r.a.) kirishlari bilan oyoqlarini tortadilar.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Albatta, Usmon (r.a.)ning xulafoi roshidinning uchinchilari bo‘lganliklari, tirikliklaridago jannat xabarini eshitganliklari ham u kishi haqida tarix kitoblarida maxsus xabarlar berilishiga sabab bo‘lgan. Zero, Rasululloh (s.a.v.): “Har bir nabiyning hamrohi bordir. Mening jannatdagi hamrohim Usmondir”, deganlar.

Usmon ibn Affon (r.a.) hijriy 23 yil zulhijja oyining oxirgi kunidan 35 yil 18 zulhijjagacha (mil: 644 yil 6 noyabrdan 656 yil 16 iyungacha) xalifa bo‘lganlar. Shunda qamariy 70 yoshda edilar. Usmon (r. a.) hukmronlik davrlarida Armaniya, Afrika va Kipr davlatlari fath etilgan. Jumladan, masjidi nabaviyni kengaytirish, juma namozida birinchi azonni ziyoda qilish, qo‘riqxonlar tashkil etish, muazzinlarga maosh belgilash, mirshablikni joriy qilish, masjidda boshliqqa alohida joy qilish kabi islohotlar Usmon (r.a.) xalifalik davrida bo‘lgan.

Ibn Asokir Zayd ibn Sobitdan rivoyat qiladi: Rasululloh (s.a.v.)ning shunday deganlarini eshitdim: “Huzurimda maloikalardan biri turganda Usmon o‘tib qoldi. Shunda u dedi: “O‘z qavmi o‘ldiradigan shahid shu, biz undan hayo qilamiz”. Anas (r.a.)dan rivoyat qiladi: “Nabiy sallallohu alayhi vasalam Abu Bakr, Umar, Usmon bilan Uhud tog‘iga chiqdilar. Shunda u qimirladi. U zot: “Ey Uhud, sobit tur! Ustingda nabiy, siddiq va ikki shahid turibdi”, dedilar. Darhaqiqat, Usmon (r.a.) fitna va zulm tufayli namoz o‘qiyotgan mehroblarida o‘ldirildi, shuning uchun “*shahidul mehrob*” martabasiga erishganlar.

Adabiyotlar ro‘yxati

(Использованная литература / References):

1. Жалолиддин Суютий. Тарих ал-хулафо. – Т.: Шарқ, 2020. - Б. 124.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991.
3. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. MAT. 12-tom. – Toshkent: Fan, 1996.
4. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 17-tom. – Toshkent: Fan, 2001.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. Birinchi kitob. Hilol. – Т.: 2018.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sunniy aqiydalar. – Т.: «Movarounnahr», 2007.
7. Haqqul I. Navoiyga qaytish (2-kitob). –Т.: “Fan”, 2011.